

MUSTAQILLIK – G'URURIMIZ!

Amirxonzoda Saidaxon Nodirqizi

Toshkent shahar Uchtepa tumani 287-maktabning 8-“a” sinf o'quvchisi

To'raboyev Anvarxon Akmal o'g'li

Toshkent viloyati Toshkent tumani 11-maktabning 7-“a” sinf o'quvchisi

Annotsatsiya: *ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining Mustaqilligiga erishgunga qadar qilingan mashaqqat va Mustaqillikka erishgandan song biz yoshlarga berilgan, qilingan imkoniyatlar bor.*

Kalit so'zlar: *mustaqillik, g'urur, yoshlar, xalqimiz, davlat.*

Albatta, mustaqillik deganda birinchi bo'lib O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovni yodga olishimiz kerak va o'rinlidir.

Ma'lumki, 2015-yil 29-mart kuni yurtimizda ulkan siyosiy voqea – O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylov bo'lib o'tdi. Bu haqda so'z yuritganda, avvalo, har tomonlama yuqori saviyada, muqobillik asosida o'tgan bu saylov mamlakatimizni demokratik rivojlantirish yo'lida yana bir muhim, hal qiluvchi bosqich bo'lib, xalqimizning o'z kuchi va salohiyatiga bo'lgan ishonchi naqadar mustahkam ekani, uning siyosiy-huquqiy ongi, ijtimoiy faolligi, Vatanimizning bugungi va ertangi taqdiri uchun dahldorlik hissi tobora ortib borayotganini amalda yaqqol namoyon etganini ta'kidlash lozim. Konstitutsiyamiz, milliy va xalqaro huquq normalari, demokratik tamoyillar asosida, ochiqlik va oshkorolik, tenglik va xolislik printsiplariga to'la muvofiq ravishda o'tkazilgan ushbu saylovda saylovchilarning 90,39 foizi Tadbirkorlar va ishbilarmon harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasidan Przidentlikka nomzod Islom Karimovga ovoz berdi. Bunday yorqin g'alaba, hech shubhasiz, Islom Karimovning davlat rahbari sifatida O'zbekistonning mustaqilligini ta'minlash, uni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik maqsad va vazifalarini hal etish borasidagi beqiyos xizmatlari, yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlarning xalqimiz tomonidan etilgani va yakdillik bilan qo'llab-quvvatlanganidan dalolat beradi.

Davlatimiz va jamiyatimizning hozirgi va kelgusi hayotiga bevosita dahldor bo'lgan muhim konseptual fikrlar, g'oya va qarashlar ilgari surilgan, biz uchun yangi tariximizning ajralmas bir qismi bo'lib qoladigan ana shu nutq va maruzalarni atroflicha o'rganish, tahlil qilish, keng jamoatchilikka, avvalambor, yoshlarimizga yetkazish dolzarb ahamiyatga egadir. O'zbekistonning tashqi siyosiy kontsepsiyasi to'g'risidagi qarashlari har tomonlama puxta asoslangan holda bayon qilingan.

“Biz o'tgan davrda amalga oshirgan ishlarimizga baho berar ekanmiz, “Kecha kim edigu bugun kim bo'ldik?” degan savol asosida ularning mohiyati va ahamiyatini o'zimizga chuqur tasavvir etamiz. Ayni vaqtda “Ertaga kim bolishimiz, qanday yangi marralarni

egallashimiz kerak?” degan savol ustida o‘ylashimiz, nafaqat o‘ylashimiz, balki amaliy ishlarimiz bilan bunga javob berishimiz lozim”.

Mamlakatimizda ta’lim sohasini rivojlantirish va isloh etishga yo’naltirilyotgan yillik harajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etayotgani va bu sohaning davlat byudjeti xarajatlaridagi ulushi 35 foizdan ziyod ekani, bunday ko’rsatkichlarni dunyoning boshqa davlatlarida kamdan-kam uchratish mumkinligi bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, ЮНИСЕФ, ЮНЕСКО va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan e’tirof qilinmoqda. So’nggi yillarda <Moddy’s>, <Standart & Poor’s> hamda <Fitch Rating’s> xalqaro reyting agentliklari yurtimizning barcha tijorat banklariga ularning barqaror o’sish sur’atlarining erishayotganini tasdiqlaydigan reyting baholari taqdim etilmoqda.

Inson har qanday sharoitda ham o’zini o’timishini bilmasa xato qiladi. Biz kechagi tariximizda ro’y bergan mudhish kunlar haqidagi ma’lumotlarni yosh avlodga o’z vaqtida yetkazsak, ularning ongida hech qachon bo’shliq paydo bo’lmaydi. Bo’shliq degani shuki, kimlardir doim uning o’rnini bir narsa bilan to’ldirish payida bo’ladi va qo’yib bersangiz, bunday “chaqqon”lar istagancha topiladi. O’zining egri niyatiga erishish uchun, kerak bo’lsa katta pul ishlatishadi, eng yomoni muqaddas islom dinini buzib ko’rsatishga urinib yoshlarimizni chalg’itishdan ham toymaydi. Buyuk alloma va mutaffakirlar, aziz-avliyolar yetishib chiqadigan joyda, avvalo, ilmu ma’rifar, madaniyat va ma’naviyat uchoqlari rivojlangan bo’lishi kerak. Bo’m bo’sh joyda hech kim buyuk sivilizatsiya paydo bo’lmaydi. Biz shuni doimo yodda tutishimiz kerakki, xayot hech qachon bir joyda to’xtab turmaydi va erishgan natijalari bilan kifoyalanmasdan, dunyoda kechayotgan tub o’zgarishlar jarayonidagi o’z o’rniga haqqoniy va tanqidiy baho beradigan, davrning tobora ortib borayotgan talablari va jahon bozorida kuchayib borayotgan raqobat kurashiga mos holda qadam tashlaydigan davlatgina birinchi navbatda muvaffaqiyat qozona oladi. Biz, odatda ona tuprog’imizda mangu orom topgan ota-bobolarimizning qabri oldiga borib, ularning ruhiga tilovat qilamiz, ular bilan ruhan suhbat quramiz, ulardan huddiki maslaxat olganday bo’lamiz.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston iqtisodiyoti qariyb 6 marta o’sdi. Unda sanoatning ulushi 16% dan 34% ga ko’tarildi. Yurtboshimiz mamlakatimizning bugungi va ertangi kunini, hal qiluvchu kuch bo’lib maydonga chiqayotgan yoshlarimizning tafakkuri va dunyoqarashini keskin o’zgartirgan, mutlaqo yangi ta’lim va tarbiya tizimini yaratish va xayotga tatbiq qilish ishlariga bevosita mualliflik va rahbarlik qildilar. Yurtimizda ilm-fan, sog’liqni saqlash, madaniyat va san’at, sport kabi muhim sohalar faol tarzda rivojlanmoqda. Mamlakatimizning kelgusi rivoji, xalqimiz farovonligi, uning turnush darajasi va sifatini yuksaltirish aynan shu masalaga bog’liq. Ta’lim va tarbiya, ilm-fan, sog’liqni saqlash, madaniyat va san’at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimiga ega bo’lishni chet tillarni va zamonaviy axborot-komunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashni ta’minlash va doimiy ustuvor vazifamiz bo’lib qoladi. Eng muhim yo’nalishlarimizdan yana biri – jamiyatimizda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, fuqarolik instutlari rivojlanishini qo’llab-quvvatlash, siyosiy partiyalarning obro-e’tibori va

ta'sirini oshirish, saylovchilarning ovozi uchun raqobatni kuchaytirishdan iborat. Vatanimiz mustaqilligini har tomonlama mustahkamlash, mamlakatimizning barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini, xalqimiz farovonligini ta'minlashga qaratilgan ishlarimizda buyuk Yurtboshimiz oliy saodatdir" degan so'zlari doimo bizga kuch quvvat va g'ayrat bag'ishlaydi. Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish hr qachongidan ham muhimdir.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda yoshlar haqida e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatishga davlat siyosatining eng asosiy va ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qarab kelinmoqda. Chunki yoshlar – bizning kelajagimiz. Bu soxadagi davlat siyosatini yanada chuqurlashtirish uchun yaqinda O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Aynan ta'lim va ma'rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da'vat etadi, saxovatli, sabrzanotli, bo'lishga undaydi. Muqaddas islom dinimiz bizga aynan shuni o'rgatadi. Islom olamida Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom hadislari to'plamning ishonchli manbai deb e'tirof etilgan "Ал-жомеъ ас-сах,их," to'plami barcha muhaddislar O'n ikki asrdiki, ushbu asar ahamiyatga ko'ra, muqaddas Qur'ondan keyin islom dini haqiqati ikkinchi ishonchli yozm manbaa bo'lib qolmoqda.

Biz bu insoniyat taraqqiyotining, ta'bir joiz bo'lsa, keskin burilishlar ro'y berayotgan tarixiy bosqichda yashamoqdamiz. Hammamiz yaxshi bilamiz, bugungi davr yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar zamonidir. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o'z oldiga nafaqat ko'plab mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o'tmish vazifasini qo'ymoqda. Mamlakatni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mehanizmlari eng avvalo shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bogliq. Ijtimoiy-gumanitar fanlar-tarix, arxeologiya, sharqshunoslik, O'zbekiston xalqlari madaniy merosi, tilshunoslig va adabiyotshunoslik, san'atshunoslik va boshqa sohalarda ham salmoqli natijalarga erishilmoqda.

O'zbekiston xalqi buyuk rus xalqini, uning boy tarixi, san'ati, an'anasai va qadriyatlari, rus xarakteriga mos bag'rikenglikni chuqur hurmat qilishni alohida ta'kidlaymiz. Bugungi kunda saxovatli O'zbekiston zaminida qariyb 1 million etnik ruslar istiqomat qiladi buning sababi meni fikrim bo'yicha birinchidan ular 2-jahon urishidan bu yerda qolib ketgan, ikkinchidan bizning yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng ham tinchlik, ham osuda hayot bor... Ozbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlaridan boshlab puxta o'ylangan tashqi siyosatni izchil amalga

oshirib kelmoqda. Uning zamirida o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixi va madaniyati, an'ana va qadriyatlari, ezgu orzu-intilish va manfaatlari mujassamdir. Bizning xalqimizda "Yon qoshni – jon qoshni", "Q'shning tinch – sen tinch" degan ajoyib maqollar bor. Bular

tarix tajribasidan kelib chiqib, necha ming yillik yaxshu qo'shnicilik munosabatlarini inobatga olib aytilgan buyuk hikmatli so'zlardir.

Aytib o'tish kerak: Mustaqillik ya'ni Ozbekiston Respublikasining Mustaqilligi (O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik bayrami) 1991-yil 1-sentabrda qabul qilingan, 31-avgustda SSSR qulagan. Shu kundan e'tiboran 1-sentabr Mustaqillik kuni deb nishonlab kelmoqdamiz. Mustaqillikka erishish uchun oz muncha harakat ketmaganini yaxshi bilamiz. Abatta, bu mashaqqiyatning qadriga eytishimiz shart, qadriga yetmagan kishi-yu bola qolmagan bo'lsa ham kerak. Shu o'rinda adolat xalqimiz uchun azal-azaldan tinch va farovon xayot mezoni, barcha ezguliklar manbai bo'lib kelgan. Sohirqiron Amir Temur bobomiz "Kuch – adolatdadir" degan hikmatga amal qilib, davlat boshqaruvini tashkil qilish, el-yurtning tinchligi va obodligini ta'minlashga erishgani tarixdan ayon.

Men bir narsani tushunib yettim-ki, jamiyat ahl bo'lmasa, insonlar birlashmasa va bir-birini hurmat qilmasa, hech qanday natijaga erisha olmaydi. Avvalo insonda bir-biriga hurmat bo'lishi lozim! Mustaqillik bizning boshqa xalqlar orasidagi "G'URURIMIZ" dir, faxrimizdir. Tinch osuda hayotda boshqa bizga hech narsa-ki, hech nima kerak emas!!!

Bu yil Jonajon O'zbekistonimizning Mustaqilligiga 31 yil to'ladi!!!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1) "Islom Karimov Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir" Toshkent-"O'zbekiston"- 2015 kitobi
- 2) "Shavkat Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" Toshkent-"O'zbekiston"- 2018 kitobi
- 3) "Shavkat Mirziyoyev Xalqimizning rozilgi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir" Toshkent-"O'zbekiston"- 2018